

HUQUQ

*Karimov Ravshanbek**Farg'ona davlat uniwersiteti habiy ta'lim fakulteti oqituvchisi**Naziraliyev nodirbek mirzaval o'g'li**Qayumov nodirbek g'ulom o'g'li**Muhammadov islomiddin ma'rufjon o'g'li**Farg'ona davlat uniwersiteti habiy ta'lim fakulteti kursantlari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq boyicha qisqacha maruza qilingan. Huquq — davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umum majburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: jamiyatda, mulkchilik, davlat, Huquq .

Huquq — davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umum majburiy ijtimoiy normalar tizimi. U huquqiy munosabatlar va fuqaroning davlat tomonidan mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va muhofaza etiladigan asosiy huquqlarini o'z ichiga oladi. H. davlat bo'lib uyushgan jamiyatda paydo bo'ladi va mulkchilik munosabatlarini, xo'jalik aloqalari mexanizmini mustahkamlaydi, mehnat va uning mahsulotlarini jamiyat a'zolari o'rtasida muayyan o'lchov va shakllarda taqsimlab turuvchi vazifasini o'taydi (fuqarolik H.i, mehnat H.i); vakolatli organlar, davlat boshqaru-vi organlari shakllanishi, tartibi, faoliyatini belgilab beradi, nizolarni qay yo'sinda hal qilish kerakligini, mavjud ijtimoiy munosabatlarni buzishga qarshi kurash choralarini (jinoiyat H.i, protsessual H.) belgilaydi, shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning xilma-xil shakllariga ta'sir ko'rsatadi (oilaviy H.). H. normalari boshqa ijtimoiy tartibga soluvchi normalar (din, axloq, odat va boshqalar)dan o'zining majburiyligi bilan ajralib turadi.

H.ning 2 yoki undan ortiq davlatlarning xohish-irodasi, istaklari bilan vujudga keltiriladigan xalqaro huquq hamda faqat bir davlat doirasida bo'lgan milliy H. ko'rinishlari bor. Fanda H.ni "geografik" jihatdan bo'lib talqin qilish ham mavjud. Unga ko'ra quyidagi huquqiy tizimlar ("huquq oilalari") farqlanadi: kontinental (yoki romangerman), an-glosakson (yoki ingliz-amerika), in-deys, musulmon huquqi. Qiyosiy huquq-shunoslik namoyandalari "sotsialistik davlat"lar deb atalgan davlatlar H.ini ham alohida tizimga kiritishni taklif etadilar. O'zbekiston Respublikasi huquqi kontinental H. tizimiga mansub.

H.ning o'ziga xos umumiy va maxsus belgilari mavjud. H.ning ijtimoiyligi, normativ ko'rsatmalardan ibo-ratligi, adolat va erkinlik g'oyalarini ifodalashi, umum

majburiy va irodaviy xususiyatlari, qonuniy aniqligi, rasman belgilanganligi, tizimligi va jo‘shqinligi, davlat tomonidan muhofaza etilishi shular jumlasidandir. H. tushunchasi va mohiyatini aniqlash bo‘yicha 3 asosiy yondashuv bor: a) H.ga mutlaq yuridik normalar tizimi sifatida qarovchi normativ yondashuv (buni H.ni tor ma’noda tushunish ham deyiladi); b) H.ni u tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar bilan tenglashtiruvchi sotsiologik yondashuv; v) H.ni erkinlik va adolat mezoni bilan bog‘lovchi falsafiy yondashuv (keyingi ikki yondashuvni H.ni keng ma’noda tushunish ham deyiladi). Shu bilan birga huquqshunoslik fanida qad.hisoblangan va puxta ishlab chiqilgan H.ning tabiiy huquq va pozitiv huquqqa bo‘linish g‘oyasi mavjud. Pozitiv H. davlat huquqiy ijodkorlik faoliyatining natijasi, mahsuli hisoblanadi.U davlat qabul qilgan normalarda, ya’ni qonunchilik-da, shuningdek, boshqa huquqiy man-balarda ifodalangan H.dir. Yurispridensiyada H. tizimi 2 ga ajratila-di: xususiy H. va ommaviy Huquq. Fuqarolik H.i (ashyo H.i, majburiyat H.i, savdo H.i, oila H.i, meros H.i, tijorat H.i) xususiy H.qa tegishli-dir. Ommaviy H.qa esa davlat, moliya, jinoyat, protsessual va xalqaro Huquq. kiritiladi.

H. jamiyat hayotining turli sohalari — iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma’naviy munosabatlarga ta’sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Yuridik nuqtai nazardan bu funksiyalarni 2 turga: regulyativ (tartibga soluvchi) va negativ (qo‘riqlovchi) funksiyalarga ajratish mumkin. H.ning regulyativ funksiyasi jamiyat a’zolari yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o‘rnatishdan, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy asosga qo‘yishdan, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg‘unlashtirish va barqarorlashtirishdan ibo-rat. H.ning negativ funksiyasi uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilangan huquqiy ta’sir etish yo‘nalishi bo‘lib, u umumiy ahamiyatga molik iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni muhofaza etishga, ularning daxlsizligini ta’minlashga va shu bilan birga, jamiyatga yot, zararli munosabatlarni siqib chiqarishga qaratiladi. H.ning bu funksiyasiga xos xususiyatlar uni davlatning H.ni muhofaza etish faoliyati bilan qiyoslaganda aniq namoyon bo‘ladi.Tegishli davlat idoralari H. sohiblari tomonidan qonun talablari qat’iy bajarilishini ta’minlaydi, jamiyatda qonuniylik muhitini vujudga keltiradi. Bu ish H. buzilishlari faktini aniqlash, ularni tergov qilish va aybdorlarni yuridik javobgarlikka tortish bilan ta’minlanadi.

H.ning nazariy masalalarini G‘arbda, jumladan, Yevropada ijtimoiy fan soha olimlari, ayniqsa huquqshunoslari teran va izchil yoritib kelmoqdalar. Mustaqillik tufayli O‘zbekistonda ham bu boradagi urinishlar va sa’yharakatlar, izlanish va tadqiqot ishlari birmuncha kuchaydi. O‘zbek huquqshunoslik fani vujudga keldi. Bu fan namoyandalari milliy davlatchilik tarixini, huquq va davlat umumnazariy masalalarini o‘rganish borasida milliy qadriyatlarni, ilmiy merosni zamonaviy

umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar. Bu sohaga milliy istiqbolni mustahkamlash ishining bir qismi sifatida qaramoqdalar.

Xalqaro huquq tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi. Xalqaro ommaviy huquq-xalqaro munosabatlarda qatnashadigan va ishtirok etadigan davlatlar (sub'yektlar)ning yuridik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquq-davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosobatlarning bazaviy xalqaro printsiplarini belgilab beradi. Xalqaro ommaviy huquq davlatlararo milliy munosabatlarni, davlatlar bilan xalqaro tashkilotlar, xalqaro miqiyosda fuqarolarning asosiy huquq, burch va erkinliklarini, **xalqaro huquq** doirasida xalqaro nizo va kelishmovchiliklarni hal qilish bilan bog'liq hamda boshqa munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Xalqaro huquq — xalqaro muloqotdagi davlatlararo va boshqa qatnashuvchilar (sub'yektlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ommaviy yuridik prinsiplar va normalar majmui. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda Xalqaro huquq ob'yekta o'z mazmun mohiyati jihatdan alohida davlat vakolatidan tashqariga chiquvchi xalqaro, aniqrog'i, davlatlararo munosabatlar hisoblanadi. Davlat ichki huquqidan farqli ravishda Xalqaro huquq normalarini yaratish va bajarilishini ta'minlash bilan shug'ullanadigan qonun chiqaruvchi organlar yo'q. Xalqaro huquqning asosiy sub'yektlari davlatlar xisoblanadi. Ularning o'zaro kelishuvi bilan vujudga keladigan Xalqaro huquq normalari davlatlarning kelishilgan irodasini ifoda etadi. Xalqaro huquqning o'ziga xos xususiyati ana shundadir. Turli xalkaro shartnomalar, bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, BMTning hujjatlari Xalqaro huquqning normativ bazasi hisoblanadi.

Hozirgi zamon Xalqaro huquqi xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquqga bo'linadi. Xalqaro ommaviy huquq xalqaro munosabatlarda qatnashadigan davlatlar va boshqa sub'yektlarning o'zaro munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Xalqaro xususiy huquq turli davlatlar fuqarolari hamda tashkilotlari o'rtasidagi mulkiy va boshqa munosabatlarni, ularning huquqiy holatini, yurisdiksiyasini, yashab turgan davlat milliy qonunchiligini qo'llash tartibi va shartlariga doir munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro ommaviy huquq xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, inson huquklari bo'yicha xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro ekologiya huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro havo huquqi, xalqaro kosmik huquq kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari bor. Ular Xalqaro huquqni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi universal majburiy me'yorlardir. Xalqaro huquqning aksariyat tamoyillari BMT Ustavining 2moddasida bayon etilgan. Ular BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli Xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi 1970 y. Deklaratsiyasida hamda

Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YEXHK)ning Yakunlovchi hujjatida batafsil yoritib berilgan. Bular quyidagilardir: kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; davlatlarning xalqaro hamkorligi; davlatlarning suveren tengligi; xalqlar va millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi; davlatlarning xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishi; chegaralar daxlsizligi; davlatlarning hududiy yaxlitligi; inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishdir. Jahon hamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham (mas, atrof muhitni muhofaza qilish) shakllanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini qo‘lga kiritgach, xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’yekti sifatida faoliyat yurita boshladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Xalqaro huquqning yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillarining aksariyati belgilab qo‘yilib (17modda), "xalqaro huquqning boshqa umum tan olingan tamoyil va me‘yorlari"ni hurmatlash aytib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning ana shu tamoyil va me‘yorlariga izchil rioya qilmoqda, xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etmoqda, ularni bajarmoqda, xalqaro tashkilotlar faoliyatida, jamoa xavfsizlik tizimlarida qatnashib kelmoqda. Dunyo davlatlari bilan šir qatorda yalpi va adolatli tinchlikni ta‘minlash, o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘rnatish, insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni hal etishda o‘z hissasini qo‘shmoqda. Zamonaviy Xalqaro huquqning asosiy tamoyillari "O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida"gi (1996 y. 26 dek.) qonunda mustahkamlab qo‘yilgan.

Akmal Saidov.

Халқаро ҳуқуқ тушунчаси- бу халқаро ҳуқуқ субъектлари ўртасидаги оммавий-ҳуқуқий ҳарактердаги сиёсий, харбий-сиёсий, харбий-техникавий, иқтисодий, валюта-молиявий, илмий-техникавий, маданий ва гуманитар муносабатларни тартибга солувчиюрдик (шартномавий ва одат) нормалар йиғиндиси Халқаро ҳуқуқ предмети-бу халқаро ҳуқуқ нормалари билан тартибга солинадиган ва халқаро ҳуқуқ субъектлари ўртасидаги вужудга келадиган оммавий-ҳуқуқий ҳарактердаги сиёсий, харбий-сиёсий, харбий-техникавий, иқтисодий, валюта-молиявий, илмий-техникавий, маданийвагуманитармуносабатлардир.

Xalqaro konvensiyalar - xalkaro shartnoma turlaridan biri; davlatlarning, odatda, bironbir ixtisoslashgan sohada o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ko‘p tomonlama Xalqaro konvensiyalar umumiy xarakterdagi normalarni o‘z ichiga oladi (mas, xalqaro gumanitar huquq bo‘yicha 1899 va 1907 yillardagi Gaaga konvensiyalari, 1949 yildagi Jeneva konvensiyalari va boshqalar). Aksariyat Xalqaro konvensiyalar BMT va uning ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlari tomonidan qabul qilinadi

Yuridik shaxs — fuqarolik huquq va majburiyatlarining sub'yektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va shaxslar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, Yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida molmulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu molmulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. O'zbekiston Respublikasining FKda Yuridik shaxslarning quyidagi 2 turi farqlanadi: 1) tijoratchi tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan tashkilotlar. Mas, xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari; 2) tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar, ya'ni foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan tashkilotlar. Mas, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Yuridik shaxslar fuqaro (fuqarolar) tomonidan (mas, xususiy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyat, notarial kontora kabi shakllarda), Yuridik shaxslarning o'zlari tomonidan (mas, o'zga aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini sotib olishi yo'li bilan, Yuridik shaxslar birlashma yoki uyushma ittifoqlariga birlashishi orqali), davlat tomonidan (mas, operativ boshqaruvga asoslangan ta'lim muassasasini tashkil qilish, davlat molmulki bo'lgan korxonalar ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotgan paytda aksiyalarning bir qismi davlatning o'zida qolgan hollar) ta'sis etilishi mumkin. Ular, o'z navbatida, tashkil qilingan Yuridik shaxsning muassislari (ta'sischilari) hisoblanadilar. Shuningdek, O'zRda Yuridik shaxsning ta'sischisi chet el fuqarosi, chet el kompaniyasi (Yuridik shaxsi) ham bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra, ustav jamg'armasining miqdori ta'sis etilayotgan Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilayotgan paytda 150000 AK.Sh dollaridan ortiq va ulushning kamida 30 foizini chet el investorining hissasi tashkil etsa, bunday Yuridik shaxs — qo'shma korxonalar, agar yuz foiz ulush chet ellik investorga tegishli bo'lsa, bunday Yuridik shaxs — xorijiy korxonalar hisoblanadi. Ayni vaqtda bunday mulkiy senzlar mahalliy Yuridik shaxslarga ham o'rnatilgan. Chunonchi, mas'uliyati cheklangan jamiyatning, xo'jalik shirkatining ustav fondi jamiyatni, shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish paytidagi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan kam bo'lmasligi kerak. Ayni vaqtda Yuridik shaxslarning mulkiy mablag'lari sohasida ayrim cheklashlar ham mavjud. Mas, Yuridik shaxsning bir turi bo'lgan siyosiy partiyalar xayriya yordamini faqat O'zbekiston Respublikasi Yuridik shaxslari va fuqarolaridan oladilar (O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 30 apreldagi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonuni). O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni (2000 yil 25 may)ga ko'ra, Yu.shlar qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat

turi bilan shug‘ullanishlari mumkin. Shuningdek, ayrim faoliyat turlari bilan faqat ruxsatnoma (litsenziya) orqali shug‘ullanishga yo‘l qo‘yiladi (O‘zRning 2000 yil 25 maydagi "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida"gi qonuni). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 maydagi qarori bilan "Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati" belgilangan. Ularga, jumladan, atom energetikasi ob‘yektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ta‘mirlash, geodeziya va xaritagrafiya faoliyati, mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash, noshirlik, tibbiy, nodavlat ta‘lim muassasalari faoliyati kabilar kiradi. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga ko‘ra, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlilik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘ligi va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ham taqiqlanadi.

YU.sh.ning huquq layoqati u tuzilgan paytdan, ya‘ni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uning faoliyati tugashi (tugatilishi) bilan tugaydi. Yuridik shaxs ustav asosida yoki ta‘sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta‘sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo‘lmagan Yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin. Yuridik shaxs qonunlarga va ta‘sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o‘z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo‘ladi va zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. Yuridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonunlar va ta‘sis hujjatlari bilan belgilanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda Yuridik shaxs o‘z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo‘lishi va fuqarolik burchlarini o‘z zimmasiga olishi mumkin. Yuridik shaxslarning faoliyati qayta tashkil etish (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) yoki tugatish (muassislarning qarori bilan, faoliyat ruxsatnomasiz olib borilganda, bankrot deb topilganda — sudning qarori bilan) orqali bekor bo‘ladi.

Mamlakatimizda Yuridik shaxslar faoliyatini bevosita tartibga soluvchi bir qancha qonun hujjatlari mavjud: "O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida" (1991 yil 15 fevral). "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida" (1996 yil 26 aprel). "Notariat to‘g‘risida" (1996 yil 26 dekabr), "Advokatura to‘g‘risida" (1996 yil 27 dekabr), "Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida" (1997 yil 26 dekabr), "Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida" (1998 yil 30 aprel), "Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida" (yangi tahrirda 2004 yil 26 avgust), "Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida" (1998 yil 30 aprel), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida" (1999 yil 14 aprel), "Qurilish sohasidagi

huquqbuzarliklar uchun Yuridik shaxs larning javobgarligi to'g'risida" (2000 yil 15 dekabr), "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida" (2001 yil 6 dekabr), "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shma mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" (2001 yil 6 dekabr), "Xususiy korxonalar to'g'risida" (2003 yil 11 dekabr)gi va boshqalar qonunlar. Ad.: 3okirov I. B., O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi, T., 1996; Rahmonqulov X.R., O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar, T., 1997; Ro'zinazarov Sh.N., Bozor sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tuzilmalarining fuqarolik huquqiy maqomi, T., 1997; Kashanina T.V., Korporativnoye pravo, M., 1999; Ayubov U., Fermer xo'jaliklarini tashkil etishni tartibga solish, T., 2002; G'ulomov S.S., Xalqarosavdo huquqi, T., 2002; Tadbirkorlik huquqi, T., 2002; Yuldashev J. I., Aksiyadorlik jamiyatlari — fuqarolik huquqining sub'yekti, T., 2004.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toxir, T., Arabboy, Y., Zuxriddin, G., & Abdurauf, G. (2022). Theoretical And Practical Pedagogical Bases of Formation of Professional Culture of Students of Military Education. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 2, 19-20.
2. Abdugani, B., Arabboy, Y., & Mashrabboy, M. (2021). General characteristics of the military committees of the armed forces of the Republic of Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1062-1065.
3. Baxodir, P., Baxriddin, A., Ilhomjon, T., & Arabboy, Y. (2022). The Concept of Patriotism in The Mind of Youth. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 82-83.
4. Muhiddin, H., Arabboy, Y., Botirjon, O., & Oybek, T. (2022). The Role of Legal Culture in Youth Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 4, 47-48.
5. Muzaffar, T. (2022). CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 158-160.
6. Ogli, Y. A. B., Ogli, A. I. N., & Abdulaev, A. (2021). The Main Directions of Military Patriotic Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 1(1), 99-100.
7. Abdugafurovich, T. T., & Shokhmukhammad, M. (2021). THE ROLE OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(9), 126-130.
8. Utkirbek, K., Shoxmuxammad, M., & Paxlavonjon, X. (2021). Innovative Methods of Teaching. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 193-195.